

EKOLOGIK QONUN TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN YURIDIK JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH: JINOIY JAVOBGARLIK MASALALARI

Xusanov Ashurbek Feruz o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Tabiiy resurslar huquqi” yo‘nalishi magistranti

ashurbekxusanov2003@gmail.com +998993316518

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.05.2026

Revised: 05.05.2026

Accepted: 06.05.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*ekologik jinoyatlar,
yuridik javobgarlik,
Jinoyat kodeksi,
tabiatni muhofaza
qilish, xorijiy tajriba,
takomillashtirish,
kompensatsion ekish.*

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ekologik qonun talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik, xususan ekologik jinoyatlarning huquqiy mohiyati, mavzuning dolzarbligi, amaldagi qonunchilik va amaliyotda mavjud ma‘lumotlar asosida tahlil qilinadi, huquqshunos olimlarning ekologik jinoyatlar tushunchasiga bergan ta‘riflari keltiriladi.

Ushbu tahlilda xorijiy tajriba (Germaniya, Singapur, Yaponiya) bilan taqqoslash asosida yuridik javobgarlikni takomillashtirish yo‘llari taklif etiladi. So‘nggi yillarda (2023–2025) qabul qilingan o‘zgartirishlar (PQ-171 va boshqalar) tahlil qilinib, jarimalarni oshirish, monitoringni kuchaytirish va jazo mexanizmlarini qat‘iylashtirish zarurligi asoslanadi.

Kirish

Bugun texnika taraqqiy etayotgan, yer yuzida urbanizatsiya jarayoni ketayotgan zamonda yashar ekanmiz, atrof-muhitni asrash, tabiatga yetkaziladigan zararlarning oldini olish har qachongi davrdan ham dolzarb tus olib bormoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiatga, xususan daraxtlar va tabiiy boyliklarga yetkazilayotgan ulkan zararlarning oldini olish, bu sohada qilinadigan jinoyatlar uchun munosib hamda adolatli jazo tayinlash bugungi qonunchiligimizda ishlab turgan mexanizm, jazo tizimini takomillashtirish vazifasini yuzaga keltirdi. Shu sababdan qonunchilik doirasida tabiatga qarshi qilinayotgan jinoyatlar uchun jazo tizimini takomillashtirib, atrof-muhitni, tabiiy boyliklarni asrash zarurdir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 2-moddasiga binoan tabiatni muhofaza qilish obyektlari (yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi) ifloslanishdan, buzilishdan, zararlanishdan, oriqlab ketishdan, vayron bo‘lishdan, yo‘q bo‘lib ketishdan, nooqilona foydalanishdan muhofaza etilishi lozim.

Iqlim global isishining to'xtovsiz davom etayotganligi inson salomatligi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun katta xavf tug'dirmoqda. O'zbekiston iqlim o'zgarishiga nisbatan himoyaga muhtoj mamlakatlar toifasiga kiradi. Resurslarni tejaydigan qo'shimcha chora-tadbirlarning ko'rilmagan taqdirda mamlakat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida beqarorlikka olib keluvchi va oziq-ovqat hamda ekologik xavfsizlikka tahdid soluvchi suv resurslari taqchilligiga, qurg'oqchiliklar hamda xatarli hodisalar ko'payishiga duch kelishi mumkin. Ayni vaqtda hayvonot dunyosining 91 turi Xalqaro Qizil kitobga, o'simlik dunyosining 324 turi va hayvonot dunyosining 184 turi O'zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan. Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyada Konvensiya tomonlariga quruqlikdagi qo'riqlanadigan tabiat hududlari ulushini mamlakat jami hududining 17 foizigacha yetkazish tavsiya etilgan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bu ko'rsatkich qariyb 5 foizni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining o'rmon fondi 11 572,6 ming gektarni yoki mamlakat hududining 25,7 foizini, shu jumladan o'rmon bilan qoplangan 3 201,6 ming gektarni tashkil etadi. O'rmonlar asosan ekologik (tuproqni muhofaza qilish, suvni muhofaza qilish, o'simlik va hayvonot dunyosini va boshqa tabiat resurslarini saqlash va muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, sog'lomlashtirish, rekreatsion) vazifalar va ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajaradi. Aholi ko'proq zich yashaydigan va yirik sanoat obyektlari yaqinidagi hududlarda o'sadigan daraxt va butalarga eng ko'p antropogen og'irlik tushmoqda¹⁰.

Atrof-muhitni asrash, tabiatni o'z holicha saqlab qolish bugun global muammoga ham aylanib ulgurdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy saytidagi ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda 1 milliarddan ortiq aholi o'rmonlar orqali oziq-ovqat to'plab, umr kechirmoqda. Lekin tabiat inqirozga uchragan. Bir milliongacha turlar yo'q bo'lib ketish xavfi ostida, ularning aksariyati esa bir necha o'n yillikda butunlay yo'qolib ketadi. Amazonka tropik o'rmonlari kabi almashtirib bo'lmaydigan ekotizimlar o'rmonlarning kesilishi tufayli uglerod cho'kindilaridan uglerod manbalariga aylanmoqda. Ko'p miqdorda uglerodni yutadigan sho'r botqoqliklar va mangra botqoqliklari kabi botqoqliklarning 85 foizi allaqachon yo'q bo'lib ketdi¹¹.

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlarning zarari faqatgina tabiatgagina emas, balki u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan insoniyatga, uning hayoti va sog'lig'iga ham bevosita yetadi. Shu nuqtayi nazardan, tabiatni muhofaza qilish, unga qarshi jinoyatlarni oldini olish, jazo tizimini samarali ishlashini ta'minlash bugungi kundagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Kelib chiqayotgan oqibatlar, ijtimoiy-iqtisodiy zararlarning ko'lami vaqt o'tgan sayin kengayib borar ekan bundan bu kabi jinoyatlar uchun jazo tizimini ham takomillashtirish zarurati yuzaga keladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30-oktyabr 2019-yildagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli farmoni. 30.10.2019 <https://lex.uz/docs/-4574008>

² <https://www.un.org/en/climatechange/science/climate-issues/biodiversity>

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (hozirda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi)ning 2022-yilda amalga oshirgan ishlari yuzasidan bergan ma'lumotlariga ko'ra joylarda tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik talablari ijrosi yuzasidan 77 mingdan ortiq profilaktik tadbirlar o'tkazilgan. O'tkazilgan davlat ekologik nazorati davomida 45 304 ta qonunbuzilish holatlari aniqlanib, huquqbuzarlarga jami 38,9 mlrd.so'm ma'muriy jarima va tabiatga yetkazilgan zarar yuzasidan da'vo belgilangan bo'lib, shundan, 21,7 mln.so'm undirib olindi. 1409 ta holat bo'yicha 5,8 mlrd.so'm jarima va tabiatga yetkazilgan zararlarni undirish va qonuniy chora ko'rish yuzasidan materiallar huquqni muhofaza qilish organlariga kiritildi. 12 ta holat bo'yicha 1,5 mlrd. so'mlik da'volar yuzasidan qonunbuzarlik sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha ish qozg'atildi. Huquqbuzarlardan 300 dan ortiq hayvonot obyektlari, 6442 kg dorivor, texnik va ozuqabop o'simliklar, 2433 kg baliq mahsulotlari, 550 dan ortiq inventarlar olib qo'yildi. Olib qo'yilgan hayvonlar tabiatga qaytarilib, o'tin va baliq mahsulotlari kam ta'minlangan oilalar, Mehribonlik uylariga taqdim etilgan. 446 ta xo'jalik yurituvchi subyektlarda davlat ekologik nazorati tartibida tekshirishlar o'tkazildi. Tekshirishlar natijasida 379 ta qonun buzilish holatlari aniqlanib, 437,8 mln.so'm jarima summalari qo'llanilgan. Atrof-muhitni ifloslantirganligi uchun 50,2 mlrd.so'm qo'shimcha kompensatsiya to'lovlari hisoblandi. Ekologik talablariga rioya etmagan 24 ta korxonalar faoliyati sud qarori bilan kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar to'xtatildi. Tekshiruv natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga 1797 ta majburiy ko'rsatma va tavsiyalar berilib, profilaktika ishlari olib borildi¹².

Asosiy qism

Yuqoridagilardan ma'lum bo'lmoqdaki, ekologik qonun talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik, xususan jinoiy javobgarlik har tomonlama tabiatga va butun insoniyatga jiddiy xavf tug'diradi hamda uning oldi olinmasa, javobgarlik kuchaytirilmasa ahvol juda yomonlashib ketishi turgan gap.

Dastlab, ekologik jinoiy javobgarlik tushunchasiga berilgan xalqaro huquqshunos olimlarning fikrlari bilan tanishsak, maqsadga muvofiq bo'ladi va ekologik jinoiy javobgarlik tushunchasi haqida batafsilroq tasavvurga ega bo'lamiz.

Masalan, A.I.Chuchayev : "Ekologiya sohasidagi jinoyatlar – bu insonning munosib hayoti uchun qulay tabiiy muhitni saqlashni ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlarga, uning resurslaridan oqilona foydalanishga va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga tajovuz qiladigan, ijtimoiy xavfli aybli harakat", deb aytadi¹³.

¹² Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining rasmiy saytida 2022-yil davomida bajarilgan ishlar haqida berilgan ma'lumot. <https://eco.gov.uz/uz/legislation/ondata?legislationCategoryId=9>

¹³ Князьев А.Г., А.И. Чучаев., Д.Б. Чураков. Экологические преступления. Научно-практическое пособие. Москва : "Проспект", 2024. Страница 46

V.L. Kudryavtsevning fikricha ekologiya sohasidagi jinoyatlar – bu tabiiy muhit komponentlarining majmui, tabiiy va tabiiy-antropogen obyektlar, shuningdek antropogen obyektlar to‘plami sifatidagi atrof-muhitga tajovuz qiladigan ijtimoiy xavfli harakatlar hisoblanadi¹⁴.

O.L. Dubovik esa ekologiya sohasidagi jinoyatlar jinoyat qonunida nazarda tutilgan va u tomonidan jazo tahdidi ostida ta‘qiqlangan, oqilona foydalanish va himoya qilish insonning maqbul hayotini ta‘minlaydigan atrof-muhitga va uning komponentlariga, shuningdek, aholi va hududlarning ekologik xavfsizligiga tajovuz qiladigan va ijtimoiy boylik sifatidagi tabiiy obyektlardan bevosita noqonuniy foydalanishdan (yoki ularga noqonuniy ta‘sir qilishdan), atrof-muhit holati va sifatining salbiy o‘zgarishiga olib keladigan aybli ijtimoiy xavfli harakat (yoki harakatsizlik) deb tushunilishi kerak, deb ta‘kidlagan¹⁵.

O.X.Narzullayevning fikricha ekologik jinoyat – jinoyat qonunida ko‘zda tutilgan hamda jazo qo‘llash tahdidi bilan taqiqlangan oqilona foydalanilishi va muhofaza etilishi insonning barqaror hayot kechirishini ta‘minlovchi atrof tabiiy muhit va uning alohida unsurlari, shuningdek, aholi va hudud ekologik xavfsizligiga tajovuz qiluvchi hamda tabiiy obyektlardan huquqqa xilof ravishda foydalanish oqibatida atrof tabiiy muhit holati va salbiy o‘zgarishlarga olib keluvchi aybli ijtimoiy xavfli qilmishdir (xatti-harakat yoki harakatsizlik).¹⁶

Yuqorida keltirilgan bir necha olimlarning fikrlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, Dubovik bildirgan fikr ekologiya sohasidagi jinoyatlarning barcha jabhalarini aks ettiradi. Shundan kelib chiqib atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlarga jinoyat qonunchiligida jazo qo‘llash tahdidi bilan ta‘qiqlangan, atrof-muhitga, tabiatga, inson hayoti yoki salomatligiga bevosita zarar yetkazadigan, aholining ekologik xavfsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlarga xavf soluvchi ijtimoiy xavfli qilmish, deb ta‘rif bersak bo‘ladi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar uchun belgilanadigan jazo har doim ham qat‘iy bo‘lavermaydi va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turishi mumkin.

Masalan, 1994-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 193-moddasida ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish uchun uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan bo‘lsa, ushbu jazo muddati O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuni bilan uch yilgacha etib belgilangan.

Bundan tashqari 196-modda, ya‘ni yerlarni ifloslantirish yoki buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar

¹⁴ Кудрявцев В.Л. Экологические преступления. Общая характеристика//Вестник Южно-Уралского профессионального институтаю 2021 (7) Страница 105-106.

¹⁵ Дубовик О.Л. Экологические преступления: Комментарий к главе 26 УК РФ. М: Издво “Спарк”, 1998. Страница-81.

¹⁶ О.Х Нарзуллаев, М.М. Нурматов, Экологик-хукукий жавобгарлик: дарслик – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2024. -Б 75

=====

yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan, lekin yuqoridagi Qonun asosida 2001-yilda uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi chiqarib tashlangan.

Yuqoridagi misollar aynan jazoning darajasi va miqdori jinoyatlarning kamayishi yoki ko'payishi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Ammo yaqin 10 yillikdan boshlab ekologiya sohasidagi jinoyatlar yana ko'payib boshladi va tobora keng zararlar yuzaga kelmoqda. Bu esa aynan ekologiya sohasidagi jinoyatlar uchun jazoni takomillashtirish zarurati allaqachon yuzaga kelganligini anglatadi. Bu borada rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa Yevropa Ittifoqi davlatlari dadil qadamlar tashlab, ekologiya sohasidagi jinoyatlar uchun jazolarni kuchaytirishga mo'ljallangan qonunlarni ishlab chiqishmoqda.

Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat Kodeksining 29-bo'limida atrof-muhitga qarshi jinoyatlar uchun jazo belgilangan bo'lib, bunda e'tiborli jihati shundaki ba'zi jinoyatlar uchun jazo belgilangan moddalarda jinoyat sodir etishga urinish ham jazolanishi alohida belgilab qo'yilgan¹⁷. Bu esa oqibat kelib chiqmasada sodir etilgan jinoyat jazolanishini anglatadi. Germaniya jinoyat kodeksida atrof-muhitga qarshi jinoyatlarning ba'zilar moddiy tarkibli jinoyat hisoblansa, boshqalarida esa qilmishning o'zi jinoiy javobgarlikka sabab bo'lib, oqibatning kelib chiqishi og'irroq jazo qo'llanilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Germaniya jinoyat kodeksi 324-moddasiga muvofiq kimki ruxsatsiz suv havzasini ifloslantirsa yoki uning xususiyatlarini boshqacha tarzda o'zgartirsa, besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari ushbu kodeksda jinoyatga suiqasd qilish ham jazolanishi alohida belgilab qo'yilgani diqqatga sazovordir. Agar jinoyatchi ehtiyotsizlik oqibatida suv havzasini ifloslantirsa, unga beriladigan jazo uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima tayinlanishi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 196-moddasiga ko'ra suvni ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsagina jinoyat hisoblanishi belgilab qo'yilgan. Agar suvni ifloslantirish oqibatida odam o'lsa, aybdor muayyan huquqdan mahrum qilinib, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan.

Germaniya jinoyat kodeksining 325-moddasiga ko'ra kimki obyektini, xususan, zavod yoki mashinani ekspluatatsiya qilishda ma'muriy qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan holda, obyektga tegishli hududdan tashqarida boshqa odamlarning

¹⁷ Criminal code of Germany https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html#p3253

sog'lig'iga, hayvonlar yoki o'simliklarga yoki muhim ahamiyatga ega bo'lgan boshqa mulkka zarar yetkazishi mumkin bo'lgan havo o'zgarishiga olib kelgan bo'lsa, besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga jarima solinadi. Urinish jazoga tortiladi. Kimki obyekt, xususan, zavod yoki mashinani ekspluatatsiya qilishda ma'muriy qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan holda, obyekt hududidan tashqarida havoga sezilarli miqdorda zararli moddalarni chiqarib yuborsa, besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanadi. Agar yuqorida nazarda tutilgan harakatlar ehtiyotsizlik bilan sodir etilsa, jazo uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima jazosi tayinlanadi.

Yuqorida keltirilgan jinoyat dispozitsiyasi hamda sanksiyalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, Germaniya davlati atrof-muhitni muhofaza qilishda qat'iy va bizning qonunchilikka nisbatan qattiqroq jazo tizimiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Germaniya jinoyat kodeksida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlar uchun faqat ozodlikdan mahrum qilish va jarima jazosi belgilangan bo'lib, bunda suvni ifloslantirish qasddan sodir etilsa 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima, ehtiyotsizlikdan sodir etiladigan bo'lsa 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima jazosi berilishi belgilangan. Germaniya jinoyat kodeksiga ko'ra jarima jazosi kamida 5 kunlik yoki maksimal 360 kunlik to'liq stavkada belgilanadi hamda sud jinoyatchining moliyaviy hamda shaxsiy holatidan kelib chiqib kunlik stavka miqdorini tayinlaydi, ammo kunlik stavka kamida 1 yevro va 30 000 yevrodan oshmasligi zarur.

Bugungi kunda Singapur davlati ham ekologiya sohasida yaxshi qonunchilik tizimiga ega bo'lib, ushbu davlatning jinoyat kodeksiga kiritilgan atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar haqida batafsil tahlil qilamiz. Bu davlatning jinoyat kodeksida ekologiya sohasidagi jinoyatlar jamoat osoyishtaligi, sog'lig'i, xavfsizligi, qulayligi, odob-axloqiga daxl qiluvchi huquqbuzarliklar deb nomlangan 14-bobida belgilangan bo'lib, bular : umumiy buloq yoki suv omborining suvini ifloslantirish (277-modda), atmosferani sog'liq uchun zararli qilish (278-modda), xavfli yoki zararli moddaga nisbatan ehtiyotsizlik (284-modda), xavfli yong'in xavfini keltirib chiqarish yoki unga sabab bo'lish (285-modda), har qanday hayvonga nisbatan ehtiyotsizlik (289-modda) kabi jinoyatlar hisoblanadi¹⁸.

Yuqorida sanab o'tilgan jinoyatlarning barchasi uchun jarima (ba'zilar uchun 5000 AQSH dollarigacha bo'lgan jarima) yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki ikkalasi ham birga berilishi mumkinligi begilab qo'yilgan. Xususan, 277-moddaga ko'ra har qanday jamoat bulog'i yoki suv omborining suvini o'z ixtiyori bilan buzish yoki ifloslantirish o'sha buloq yoki suv omborining ishlatilayotgan maqsadiga ko'ra muvofiqligini kamaytirsam uch

¹⁸ Criminal code of Singapore https://sso.agc.gov.sg/Act/PC1871?ProvIds=P414_267A-#pr277-

=====
yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima jazosi yoxud har ikkala jazo bilan jazolanadi. Ushbu modda dispozitsiyasi bilan O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 203-moddasida belgilangan suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish jinoyatining dispozitsiyasini solishtiradigan bo‘lsak, bizni qonunchiligimizga ko‘ra jinoyat tugallanishi uchun og‘ir oqibat, ya‘ni suvdan foydalanuvchilarga juda ko‘p miqdorda zarar yetkazish, suv ta‘minotidagi uzoq muddatli uzilishlar kabi oqibatlar kelib chiqishi zarur. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, Singapur jinoyat kodeksidagi dispozitsiyasi bizning qonunchilikdagi xuddi shu jinoyat uchun belgilangan dispozitsiyaga qaraganda nisbatan og‘irroq hisoblanadi.

Singapur jinoyat kodeksining 278-moddasida atmosferani sog‘liq uchun zararli qilish jinoyati belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra kim har qanday joyda ixtiyoriy ravishda atmosfera havosini umumiy turar joy yoki mahallada tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan yoki jamoat yo‘lidan o‘tayotgan shaxslarning sog‘lig‘iga zarar yetkazadigan tarzda buzsa, uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima solish yoki har ikkalasi bilan jazolanadi. Bizning jinoyat kodeksimizda 196-moddada ham atmosferani ifloslantirganlik uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Yuqoridagi ikkala moddalarni tahlil qilar ekanmiz, bizni qonunchiligimizda atmosferani ifloslantirish jinoyati tugallangan deb topish uchun bir qator og‘ir oqibatlar (odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi) kelib chiqishi zarurligi, Singapur jinoyat kodeksida esa bunaqa oqibatlar talab etilmasligi namoyon bo‘lmoqda.

Yaponiyaning Jinoyat kodeksi (1907-yil qabul qilingan va keyinchalik ko‘p marta yangilangan)da to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekologik jinoyatlar deb ataladigan alohida bo‘lim mavjud emas. Biroq, Yaponiyada ekologik jinoyatlar maxsus qonunlar va Jinoyat kodeksining umumiy moddalari orqali tartibga solinadi. Yaponiya jinoyat kodeksida ichimlik suviga qarshi jinoyatlar uchun alohida bo‘lim ajratilgan bo‘lib, unda ichimlik suvini ifloslantirish (142-modda), suv ta‘minoti tizimini ifloslantirish (143-modda), ichimlik suvini zaharli moddalar bilan ifloslantirish (144-modda), o‘lim yoki jarohatlanishga sabab bo‘ladigan tarzda ichimlik suvini ifloslantirish (145-modda), suv ta‘minoti tizimini zaharli moddalar bilan ifloslantirish va o‘limga sabab bo‘lish (146-modda), suv ta‘minoti tizimiga shikast yetkazish (147-modda)¹⁹.

Yuqoridagi ichimlik suvi bilan bog‘liq jinoyatlardan kelib chiqib ayta olamizki, Yaponiya ichimlik suviga juda qattiq e‘tibor qaratadi hamda suvni iflos qilganlar uchun qat‘iy jazolarni belgilab qo‘ygan. Masalan 142-moddaga ko‘ra Insonlar iste‘mol qilishi

¹⁹ Yaponiya Jinoyat kodeksi <https://www.cas.go.jp/jp/seisaku/hourei/data/PC.pdf>

uchun mo'ljallangan suvni ifloslantirish orqali ichib bo'lmaydigan holatga keltirgan shaxs 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatga majburiy mehnat bilan ozodlikdan mahrum qilish yoki 100 000 iyenadan oshmaydigan miqdorda jarima bilan jazolanadi. Ya'ni ichimlik suvini shunchaki yaroqsiz holatga kelishiga sabab bo'lishni o'zi jinoyat hisoblanib, majburiy mehnat bilan birga 6 oygacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilab qo'yilgan. Agar shaxs suv ta'minoti tizimi orqali aholiga ichimlik maqsadida yetkazib beriladigan suvni yoki uning manbasini ifloslantirib, suvni ichishga yaroqsiz holatga keltirsa, 6 oydan kam bo'lmagan, lekin 7 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi (143-modda). Ushbu kodeksning 146-moddasi, ya'ni suv ta'minoti tizimini zaharli moddalar bilan ifloslantirish va o'limga sabab bo'lish jinoyati uchun hatto o'lim jazosi belgilangan bo'lib, unga ko'ra aholiga ichimlik maqsadida yetkazib beriladigan suvni yoki suv ta'minoti tizimini zaharli moddalar yoki inson salomatligiga zarar yetkazuvchi boshqa moddalar bilan ifloslantirgan shaxs kamida 2 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinib, majburiy mehnatga jalb etiladi. Agar bunday harakat boshqa shaxsning o'limiga sabab bo'lsa, aybdor o'lim jazosiga yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilishga yoxud kamida 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinib, majburiy mehnatga jalb etilishga hukm qilinadi.

Bundan tashqari Yaponiyada atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi bir nechta qonunlarga ega hisoblanib, ular ma'lum bir sohani qamrab olgan hamda jinoyat kodeksida belgilanmagan jazolarni nazarda tutadi. Masalan suv ifloslanishini oldini olish to'g'risidagi qonun (Water Pollution Prevention Law, 1970) suvdan foydalanish tartibi, uni ifloslantirganlik uchun javobgarlik masalalari, oqava suvni chiqarish, uning ifloslanganlik darajasini o'lchash mexanizmini tartibga soladi. Shuningdek Yaponiyada "Chiqindilarni boshqarish va jamoat tozaligi to'g'risida"gi qonun (Waste Management and Public Cleansing Law, 1970) hamda "Havo ifloslanishini oldini olish to'g'risida"gi qonun (Air Pollution Control Law, 1968) ham mavjud.

Xulosa

Yuqorida bir nechta davlatlarning ekologik jinoyatlar uchun belgilagan qat'iy jazo turlarining ba'zilarini ko'rib chiqdik. Bundan tashqari xorij tajribasida ekologik jinoyatlar uchun hatto korxonalar va zavodlarni ham moliyaviy javobgarlikka tortadi yoxud vaqtincha faoliyatini ham cheklab, to'xtatib qo'yishi mumkin.

Bu kabi kompensatsion to'lovlarning bir ko'rinishi bizda ham mavjud ammo uning samarasi va ta'siri sezilarli darajada emas, deb hisoblaymiz. Masalan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi "Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi VMQ-464-sonli qarorining 32-b-bandida yuridik va jismoniy shaxslarga har bir kesilgan daraxt va buta uchun kompensatsiya tarzida 10 tup qimmatligi jihatidan kesilgan daraxt va butalardan kam bo'lmagan yirik o'lchamli (daraxt — 5 yillik, buta — 3 yillik) ko'chatni ekish hamda ularni kamida ikki yil davomida parvarish qilish bo'yicha

qo‘shimcha majburiyat yuklatiladi. Bunda daraxt va butalarni kesish uchun ruxsatnoma berilganligi uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda undiriladigan yig‘imni to‘laganlik yuridik va jismoniy shaxslarni kompensatsiyaviy ekish hamda parvarish qilish majburiyatidan ozod qilmasligi belgilangan. Bundan tashqari noqonuniy daraxt kesganlik uchun huquqbuzarga har bir kesilgan daraxt va buta uchun 100 tup ko‘chatni kompensatsiya tarzida ekish hamda ularni kamida uch yil davomida parvarish qilish majburiyati yuklatiladi. Bunda Davlat ekologiya qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari mansabdor shaxslari tomonidan huquqbuzarga kompensatsiyaviy ekish joyi va muddatini belgilagan holda majburiy ko‘rsatma beriladi²⁰.

Yuqorida belgilangan normaning amaliyotda qo‘llanilayotganligini isbotlovchi bitta dalil keltirish mumkin. Farg‘ona viloyati ekologiya boshqarmasining rasmiy manbasida taqdim etilgan ma‘lumotga ko‘ra Farg‘ona viloyati Qo‘sh tepa tumanida ikki tup noqonuniy kesilgan daraxt evaziga fuqaro 223 tup daraxt ekib bergan. Bu holat kompensatsion ekishning amalda qo‘llanilayotganini tasdiqlaydi, garchi bu kabi holatlar kam uchrasa ham. Xabarlar jarima va zarar hisoblanishi bilan birga kompensatsion ekish talabining ham qo‘llanilganini ko‘rsatadi²¹.

Amaliyotda, kompensatsion ekishning samaradorligi institutsional salohiyatga, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hududiy bo‘linmalarining nazorat darajasiga bog‘liq. Shu bilan birga, jamoatchilikning ekologik xabardorligi va iqtisodiy muammolar, masalan, qishloq aholisining o‘tin uchun daraxt kesishi, bu norma qo‘llanilishini qiyinlashtirishi mumkin.

Ekologiyani asrab avaylash, uni muhofaza qilish oxirgi ikki yilda butun dunyoda global vazifaga aylanganligi davlatlar oldida ekologiya sohasidagi yuridik javobgarlikni yanada takomillashtirish vazifasini qo‘ydi. Shuningdek, O‘zbekistonda ham bu sohada yangi tartiblar va qoidalar ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 18-noyabrdagi PQ-343-sonli qarori eng muhim qarorlardan biri bo‘ldi va bu qaror bilan ko‘plab o‘zgarishlar, jumladan ekologiyaga jiddiy e‘tibor berish, unga zarar yetkazganlik uchun moliyaviy jarimalarni oshirish, ekologiya sohasida nazorat (ekopolitsiya) tashkil etildi. Ushbu qaror bilan belgilangan eng yaxshi o‘zgarishlardan biri bu 2026-yil 1-martdan boshlab tabiatga zarar yetkazish bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlaridan ozod qilish tarzida imtiyoz berish bilan bog‘liq barcha qonunchilik hujjatlari va huquqiy kuchga ega ko‘rsatmalar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanishi hamda ushbu masalada imtiyoz berish faqat qonun orqali amalga oshirilishidir. Ya’ni tabiatga zarar yetkazuvchilar jismoniy shaxs bo‘ladimi yoxud yirik tadbirkorlik

²⁰ Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi VMQ-464-sonli qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6165732>

²¹ Farg‘ona viloyati Ekologiya boshqarmasining rasmiy telegram kanali <https://t.me/ecofarghana/31641>

subyekti, korxonalar, zavod bo'ladimi qonunchilikda belgilangan kompensatsiya to'lovidan ozod qilinmaydi.

Bundan tashqari 2026-yil 1-apreldan boshlab ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalarni qo'llash tartibi joriy etiladi, bunda:

(a) moliyaviy sanksiyalar pul undirish (jarimalar) tarzida faqat yuridik shaxslarga qo'llanadi;

(b) bir xil huquqbuzarlik uchun moliyaviy sanksiyalar qo'llangan yuridik shaxslarning xodimlariga ma'muriy jazo chorasini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi;

(v) huquqbuzarlikning takroran sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik haqida ogohlantirish olish hamda jarimani to'lash ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi qonunchilikning buzilishiga yo'l qo'yan shaxsni Ekologiya qo'mitasining qarorini (taqdimnomasini, ko'rsatmasini) bajarish yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish majburiyatidan ozod etmaydi.²²

Darhaqiqat, ekologik qonun talablarini buzishning oqibatlarini faqatgina bugungi kun uchun emas, balki kelajak avlod uchun ham o'z ta'sirini saqlab qoladi. Ushbu sohadagi bir jinoyatning ham zarari keng ko'lamli bo'lib, unga mos jazo tayinlash va oldini olish bugun mamlakat oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining 2025-yil 17-fevralda bergan ma'lumotlarga ko'ra moratoriy joriy etilgunga qadar bo'lgan davrga nisbatan daraxtlarni noqonuniy tarzda kesish kabi qonunbuzarliklar 60 foizga kamaygan. Bu esa fuqarolarning faolligi va jamoatchilik nazoratining kuchayganini anglatadi. Shu bilan birga, noqonuniy daraxt kesish holatlari butunlay yo'qolgani yo'q. 2025 yilning o'tgan davrida respublika bo'yicha 848 tup daraxt noqonuniy kesilib, tabiatga jiddiy ziyon yetkazilgan. Har bir holatda aybdor shaxslarga nisbatan qonunga muvofiq jazo choralari qo'llanilgan.

Tegishli hisob kitoblarga ko'ra o'rtacha bir daraxt bir kishini tahminan 13 kungacha toza kislorod bilan ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib hisoblasak, o'rtacha kattalikdagi 850 tup daraxt bir kunda tahminan 10.000 dan 20.000 nafargacha odamni toza kislorod bilan ta'minlashi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda ekologik jinoyatlar uchun jazo tizimini takomillashtirish siyosiy iroda emas, balki ekologik toza muhit zarurati yuzasidan amalga oshirilmog'i lozim. Shu sababli ekologik jinoyatlar uchun jazo tizimini takomillashtirish bo'yicha:

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalarning sanksiyalarini qayta ko'rib chiqib, jazolarni xorijiy davlatlarning tajribasiga muvofiq kuchaytirish lozim, xususan

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdadi "Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-217-sonli farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7847353>

JK 193-moddanning sanksiyasini quyidagi tahrirda:

“bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”;

JK 194-moddanning 1-qismi sanksiyasini esa:

“bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”;

2-qismida nazarda tutilgan sanksiyani:

“muayyan huquqdan mahrum qilib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”;

JK 198-moddanning 1-qismida nazarda tutilgan sanksiyani:

“uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoxud bir yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”;

2-qismida nazarda tutilgan sanksiyani:

“uch yuz oltmish soatdan to‘rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari bilan bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi” deb o‘zgartirish lozim.

Bundan tashqari tabiatga zarar yetkazganlik uchun qo‘shimcha jazo sifatida jinoyatlarning turiga qarab majburiy jamoat ishlari jazosini qo‘shish (Yaponiya tajribasi asosida). Masalan, JK 196 hamda 198-moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlar uchun majburiy jamoat ishlari jazosini qo‘shimcha jazo sifatida tayinlash taklif etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30-oktyabr 2019-yildagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli farmoni. 30.10.2019 <https://lex.uz/docs/-4574008>

2. <https://www.un.org/en/climatechange/science/climate-issues/biodiversity>

3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi rasmiy saytida 2022-yil davomida bajarilgan ishlar haqida berilgan ma’lumot. <https://eco.gov.uz/uz/legislation/ondata?legislationCategoryId>

4. Князьев А.Г., А.И. Чучаев., Д.Б. Чураков. Экологические преступления. Научно-практическое пособие. Москва : “Проспект”, 2024. Страница 46

5. Кудрявцев В.Л. Экологические преступления. Общая характеристика//Вестник Южно-Уралского профессионального институтаю 2021 (7) Страница 105-106
6. Дубовик О.Л. Экологические преступления: Комментарий к главе 26 УК РФ. М: Издво “Спарк”, 1998. Страница-81.
7. О.Х Нарзуллаев, М.М. Нурматов, Экологик-хукукий жавобгарлик: дарслик – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2024.
8. Criminal code of Singapore
https://sso.agc.gov.sg/Act/PC1871?ProvIds=P414_267A-#pr277-
9. Criminal code of Germany https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html#p3253
10. Yaponiya Jinoyat kodeksi <https://www.cas.go.jp/jp/seisaku/hourei/data/PC.pdf>
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-217-sonli farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7847353>
12. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish va ulardan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi VMQ-464-sonli qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6165732>